

## TA`LIM SIFATINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH

**Sabirova Muxarram***Andijon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi***Qayumova Mushtariy Baxtiyorjon qizi****Ergasheva Gulmira Irgashboy qizi***Andijon davlat pedagogika instituti Texnologik ta`lim 3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Bugungi kunga kelib ta`lim, ijtimoiy, iqtisodiy, umuman barcha sohalar astasekinlik bilan raqamli iqtisodiyotga o'tkazilmoqda. Bulardan eng asosiysi ta`lim sohasini yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin. Chunki ta`lim tizimi kundan kunga yangilanib turishi lozim. Sababi shundaki, zamonaviy yondashuvlar asosida qurilgan darslar hech qaysi o'quvchining diqqatidan chetda qolmaydi. Shu sababli, ko'plab psixolog va olimlar aynan shu borada bir qancha tajribalar o'tkazishdi. Ma'lum bo'lishicha, har qanday yoshdag'i o'quvchining diqqati uzog'i bilan yigirma daqiqa davomida bir joyga to'planib, ma'lumotlarni shu vaqt davomidagina qabul qila olar ekan. Endi, shunday vaziyatda nima qilish kerak, qanday qilib o'quvchining diqqatini uzoqroq vaqt davomida bir joyda ushlab turish mumkin? O'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun o'qituvchi qanday metodlardan foydalanishi kerak? Shu kabi savollar tug'ilishi tabiiy hol albatta, ayniqsa bo'lajak va ko'p yillik tajribaga ega bo'limgan o'qituvchilarda. Shunday muammoli va bahsmunozaralarga sabab bo'lgan ushbu vaziyatda zamonaviy innovatsiyalar bizga qo'l keladi. Chunki bu kabi yangiliklar hamma uchun qiziq albatta. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar nafaqat o'quvchining tez va oson ma'lumotlarni qabul qilishini ta'minlaydi. Ta`lim tizimida kelib chiqayotgan tizimli muammolar raqamlashgan jamiyat muhitiga mos va xos holda o'quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Biroq kun sayin yangi texnologiyalarning ishlab chiqilishi ta`lim muhitidagi innovatsion o'zgarishlarga ta'sir

qilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, deb BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so‘zlagan nutqida ham yoshlarni chuqur bilim olishiga e’tibor qaratgan.

**Kalit so`zlar:** ta’lim, baholash tizimi, tahlil, diagnostika, sifat kriteriyasi, assimilyatsiya darajasi, ko‘nikma, kompitensiya.

- ratsionalizatsiya va ixtirochilikda tashabbus ko‘rsatish;
- kasbiy vazifalarni bajarish uchun javobgarlik va boshqalar.

## ОЦЕНКА И КОНТРОЛЬ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация:** Сегодня образовательная, социальная, экономическая, да и вообще все сферы постепенно переходят на цифровую экономику. Самая главная из них — сфера образования, которую можно привести в качестве яркого примера. Потому что система образования должна обновляться каждый день. Причина в том, что уроки, построенные на современных подходах, не могут ускользнуть от внимания любого ученика. Поэтому многие психологи и ученые провели ряд экспериментов по этому поводу. Оказалось, что внимание ученика любого возраста может быть сосредоточено на одном месте максимум двадцать минут и за это время может только усваивать информацию. Что же делать в такой ситуации, как удерживать внимание ученика на одном месте в течение более длительного периода времени? Какие приемы должен использовать учитель, чтобы привлечь внимание ученика? Возникновение подобных вопросов вполне естественно, особенно у будущих учителей, не имеющих за плечами многолетнего опыта. В этой проблемной и противоречивой ситуации современные инновации оказываются весьма кстати. Потому что такие новости интересны всем. Современные подходы и инновации не только обеспечивают быстрое и легкое усвоение информации читателем. Системные проблемы, возникающие в системе образования, направлены на организацию процесса обучения таким образом, чтобы он был адекватен и соответствовал среде цифрового общества. Однако развитие новых технологий с каждым днем

оказывает влияние на инновационные изменения в образовательной среде. Наш Президент Ш.М.Мирзиёев сказал: «Будущее и благополучие нашей планеты зависят от того, какими людьми вырастут наши дети». «Наша главная задача — создать необходимые условия для реализации молодыми людьми своего потенциала», — сказал он, подчеркнув необходимость получения молодежью глубоких знаний в своем выступлении на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН.

**Ключевые слова:** образование, система оценки, анализ, диагностика, критерии качества, уровень усвоения, умения, компетенции.

## EVALUATION AND CONTROL OF EDUCATION QUALITY

**Abstract:** Today, education, social, economic, in general, all spheres are gradually being transferred to the digital economy. The most important of these is the education sector. Because the education system must be updated every day. The reason is that lessons built on modern approaches will not go unnoticed by any student. Therefore, many psychologists and scientists have conducted a number of experiments in this regard. It turned out that the attention of a student of any age can be concentrated in one place for a maximum of twenty minutes and can only absorb information during this time. Now, what to do in such a situation, how to keep the student's attention in one place for a longer period of time? What methods should a teacher use to attract the student's attention? It is natural for such questions to arise, especially for future teachers who do not have many years of experience. In such a problematic and controversial situation, modern innovations come in handy. Because such news is of course interesting to everyone. Modern approaches and innovations not only ensure that the student receives information quickly and easily. The systemic problems arising in the education system are aimed at organizing the learning process in a way that is appropriate and specific to the environment of a digitalized society. However, the development of new technologies every day is affecting innovative changes in the educational environment. President Sh.M. Mirziyoyev, in his speech at the 72nd session of the UN General Assembly, also drew attention to the in-depth education of young people, saying, “The future and well-being of our planet depend on what kind of people our children will

become. Our main task is to create the necessary conditions for young people to realize their potential.”

**Keywords:** education, assessment system, analysis, diagnostics, quality criteria, level of assimilation, skills, competence.

## **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagи „O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida“gi 515-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Asosiy vazifalari: ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish; idoraviy mansubligi va tashkiliy huquqiy shakllaridan qat’i nazar davlat ta’lim muassasalari va nodavlat ta’lim tashkilotlarini (keyingi o‘rinlarda ta’lim tashkilotlari deb ataladi) attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish ; o‘quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta’lim tashkilotlari reytingini aniqlash; nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziyalar berish; xorijiy mamlakatlarda berilgan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olishni tashkil etish ; respublika hududida xorijiy ta’lim muassasalarining ta’lim faoliyatini yuritish huquqiga ruxsatnomalar berish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish; ta’lim va fan sohasi tashkilotlari tomonidan beriladigan rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish; O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalari reytingini tuzish va rasman e’lon qilish; o‘quvchilarning bilim darajasini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini ta’minalash; dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va milliy oliy ta’lim muassasalarining ushbu reytinglarga kirishiga har tomonlama ko‘maklashish.

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida ta’lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko‘tarish, shuningdek uzlusiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagи “Davlat oliy ta’lim muassasalarida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Bo‘lim universitet talabalari bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini o‘rganib boorish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish hamda universitetni ichki atteastatsiyadan o‘tkazishni tashkil etish va ichki attestatsiya natijalarini, ta’lim sifatiga ta’sir etgan omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni universitet rektoriga hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining, Ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash departamentiga taqdim etish yuklatildi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagи “Davlat oliy ta’lim muassasalarida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 72-son buyrug‘iga asosan Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining asosiy vazifa va funksiyalari takomillashtirilib qayta tasdiqlandi. Universitetda ta’lim sifatini nazorat qilish boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanib, uning asosiy vazifasi ta’lim sifatini davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini ta’minlash va universitetdagи o‘quv jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida nazoratni tashkil etish bo‘yicha maqsadli va kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi o‘z faoliyatida bevosa universitet rektoriga bo‘ysunadi.



## Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari:

Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: universitet va uning filiallarida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringni olib borish; talabalar bilimlarini davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarning fanlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganib borish va tahlil qilish; ta’lim sifatini ta’minlay oladigan professor-o‘qituvchilarni tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatlari o‘qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirishga imkon beradigan (obyektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish; professor-o‘qituvchilarni dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish; universitetni ichki baholashdan o‘tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo‘yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish; o‘quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilganligi va HEMIS tizmidan foydalanish samaradorligini o‘rganib borish (jumladan, axborot tizmiga ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda kiritilganligini, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi); malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarining kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish; bitiruvchi talabalarning kadrlar bozoridagi o‘rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darjasini yuzasidan kengaytirilgan xulosalarini shakllantirish; o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib borish; dars o‘tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o‘rganib borish; talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislik ta’minlanganligi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aniqlash; professor-o‘qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlariga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o‘rganish; professor-o‘qituvchilarga o‘quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish; axborot-resurs markazida talaba va o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo‘yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish; mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini

o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnomalar yoki uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo‘yilishi va talablar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash); universitetda plagiatsiga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta’minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko‘chirmachillikga qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish); Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining topshirig‘iga muvofiq, boshqa oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganishda ishtirok etish. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an’anaviy ta’lim yo’sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o‘zgarishlardan iborat bo‘lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo‘yayotgan yoshlarni shunday o‘zgarishlarga ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan tayyor bo’lmassa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o‘z o‘rnini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta’lim tizimida boy tajribalar yig’ilgan. o‘qituvchilar uchun ham sanab o‘tsa arzигуллик bir qancha qulayliklari mavjud:

1. Ma’lumotlarni tez va oson almashish;
2. Turli xil prezentatsiyalar, animatsion tekstlar, video darsliklar orqali darslarni qiziqarli va sifatli ta’minlash;
3. Jahon standartlariga mos darslarni tashkil etish va rivojlangan mamlakatlarning pedagogik metodlarini o‘zlashtirish va fikr almashish;
4. Eski va an’anaviy metodlarning o‘rniga modernizatsiyalangan texnologiyalar va ularidan foydalanim o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish imkonini; Shu kabi ko‘plab foydali jihatlarni sanab o‘tish joiz. Ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida darslarni tashkil etish XXI asrning murakkab talablaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, yoshlarni zamon bilan hamnafas olib borish ularning texnik ko‘nikmalarini oshirish va mustahkamlab borishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, o‘qitish jarayonini, mashg’ulotni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tamonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda

hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchitalabani ta'limning markaziga olib chiqishi kerak. O'qituvchi o'tiladigan mavzu yuzasidan o'quvchilarga mos interaktiv usullardan, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va bunga sharoit yaratilgan bo'lshi kerak. O'qituvchining pedagogik mahorati bu vaziyatda asosiy planga chiqadi, chunki auditoriya jihozlanmagan holatda mashg'ulotni qiziqarli o'ta olishi kerak. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lb, ularga quyidagilar kiradi:

- a) o'quvchi-talabaning mashg'ulotlar davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- b) o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy bo'lishini ta'minlashi;
- c) o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- d) pedogog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish, mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, o'zini doimiy rivojlantirib boruvchi, mustaqil boshqa bilimlarni egallay oladigan kadrlarni tayyorlash ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mustaqil faoliyat - belgilangan fan bo'yicha o'quv topshiriqlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil va ijodiy bajarishlariga oid o'quv faoliyatidir. Mustaqil faoliyat asosini mustaqil ishlar tashkil etadi. Mustaqil faoliyat o'quvchining kasbiy faoliyatida mustaqilligini belgilaydi. Ta'lim tizimida talabalarni mustaqil faoliyatini takomillashtirish muammosining dolzarbliji va uning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni quyidagi sabablar bilan tavsiflanishi mumkin: Mustaqil mavzularni tayyorlashda bilim va ko'nikmalarining turli darajasi; Axborot texnologiyalari va turli axborotlardan foydalanish savodxonligining turli darajasi; Talabalarning mustaqil faoliyati jarayonida individual kasbiy-o'quv yo'riqnomasini shakllantirish zaruriyati; Talabaning hayotga

o‘zini tayyorlashda mustaqil bilimlarni kengroq egallashi zarurligi; Boshqa o‘quv faoliyatlari singari mustaqil ta’lim mavqeini oshirish. Hozirgi vaqtda ta’lim sifatini baholashning asosiy mezoni kompetensiyaga asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv - bu ta’lim mazmuniga emas, balki natijalariga qaratilgan yondashuv. O‘quv jarayonida shakllangan o‘quvchining kompetensiyasi ostida biz o‘quvchi shaxsining sifatini tushunamiz, bu uning amalga oshirilayotgan faoliyatda qaror qabul qilish qobiliyati va tayyorgarligi, tegishli mavzuning yangi mazmunini o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi. Kompetensianing funksional tarkibi: mavzuni oldindan o‘zlashtirishni tizimlashtirishga qaratilgan kognitiv funksiya; ta’limni boshqarish tizimiga yo‘naltirishga va ularni shaxslar tomonidan o‘zgartirishga qaratilgan aksiologik funksiya; turli xil ma’lumotlar oqimida harakatlanish, zarurlarini aniqlash va tanlash, vazifaning maqsadiga qarab faollashtiradigan baholash funksiyasi; shaxsning faoliyati jarayoni va natijasini tartibga solishga qaratilgan tartibga solish funksiyasi; ta’lim jarayoni o‘quvchining ijodiy ishini faollashtirishga yordam beradigan, bitiruvchining kelajakdagi kasbiy sohasida o‘zini-o‘zi anglashi va o‘z o‘rnini topishga olib keladigan rivojlantiruvchi funksiya.

Kompetensiya talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning maqsadli asosidir. Mustaqil faoliyat yoki mustaqil faoliyat kompetensiyasi deganda talaba faoliyatining, tizimli shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar, bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar va tajribalar majmui tushuniladi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda "o‘quvchilarни mustaqil faoliyati" tushunchasiga ta’rif berishga turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu konsepsiyanı tashkiliy va mazmunli tomoni P. I. Pidkasistiyning ishlarida ko‘proq tahlil qilingan.

O‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarida u o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan turli xil bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi va ularni o‘zlashtirish uchun bajariladigan turli xil o‘quv ishlab chiqarish usullari yoki tadqiqot vazifalarini tushunadi. S.I. Arxangelskiy "mustaqil faoliyat" tushunchasini zarur ma’lumotlarni mustaqil izlash, bilimlarni egallash, bu bilimlardan o‘quv, ilmiy va kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish deb izohlaydi. Demak, mustaqil

faoliyat pedagogning metodik rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz topshiriq bo‘yicha bajariladigan talabalarning rejali ishi hisoblanadi. Talabalar mustaqil faoliyatining maqsadi eggallashi kerak bo‘lgan asosiy bilimlarni, kasbiy ko‘nikmalarini va ta’lim yo‘nalishiga oid faoliyat ko‘nikmalarini, ijodiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati ko‘nikmalarini o‘zlashtirishdir. Mustaqil faoliyat o‘quvchida o‘z harakatini nazorat qilishni, bilim darajasini, o‘qish davrida yuzaga kelgan muammolarini hal qilish uchun ko‘nikmalarini shakllantiradi, mustaqil bilim va ilmiy - ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni o‘rgatadi. Talabalarning mustaqil faoliyati shakllari o‘quv dasturining mazmuni, talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Ular nazariy amaliy, seminar darslar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkin, masalan: tahlil, diplom ishi, mavzu bo‘yicha adabiyotlarni izohlash, mavzuga oid savollar berish, o‘tilmagan darslarga oid ma’lumotlarni tayyorlash, muhokamaga tezislar va annotatsiyalar tayyorlash, o‘rganilayotgan manbalar bo‘yicha sharhlarni tayyorlash va boshqalar.

Yevropa davlatlarida talabalar fanlar va topshiriqlarni mustaqil o‘qib o‘rganganliklari sabali, ular ko‘pgina auditoriya darslaridan ozod etilganlar. Chunki, talabalarni mustaqil faoliyati orqali kasbiy yo‘naltirish prinsipi ularning bilim va ko‘nikmalarining nazariy tabiatini bilan kasbiy faoliyat mazmunining amaliy mohiyati o‘rtasidagi muammolarni hal qiladi, shu bilan birga o‘quvchi shaxsini ta’lim va tarbiyalashning yaxlit tizimini yaratish uchun asos yaratadi, kelajakdagi kasbiy faoliyatida to‘g‘ri yo‘naltirishga asos bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilar mustaqil faoliyatini tashkil qilishning asosiy tamoyillari sifatida kasbiy yo‘nalganlik, individuallik, ijodkorlik, tizimlilik va izchillikni keltirish mumkin. Bunda o‘quvchilarning quyidagi qobiliyatları namoyon bo‘ladi: Talabalarning nutq va fikrlash qobiliyatini oshiradi; Talabalar muammolarni hal qilish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar; Talabalar o‘zlarini ijodkorlik tarafdan ko‘proq nomoyon qiladilar; Talabalar ta’limdagi ma’sulyatni xis qiladilar; Talabalarning shaxsiy jihatlari o‘sib boradi; Pedagog va talaba hamda talabaning boshqa talabalar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari mustaxkamlanadi; Kasbiy tajribalar shakllanadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar passiv tinglashdan ko‘ra ko‘proq o‘zlarini rivojlantirishga harakat qiladilar. Bu yerda o‘quvchilarning qobiliyatları, qarashlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi, natijada ularning

ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobilyatlari rivojlanadi. Qayerdan qanday axborotlar olish mumkinligi, katta axborotlar hajmi bilan to‘g‘ri ishlash, o‘zlarining axborot manbalarini yaratish orqali ularning mediasavodxonlik bilimlari ham oshib boradi. Axborot oqimining keng ko‘lamda ortib borayotganligi ta’lim tizimiga ham yangidan-yangi talablar qo‘ymoqda. Raqamli ta’lim muhitida axborotlarni o‘zlashtirish va ulardan ta’lim jarayonida, mustaqil faoliyatda yetarlicha hamda samarali foydalanish uchun qulay vositalardan foydalanish va mediasavodxonlik bilimlariga zarurat tug‘ilmoqda. Aynan axborot texnologiyalari, turli an'anaviy va elektron axborot resurslaridan professional ta’lim tizimida yetarlicha foydalanishni ta’minlashni, axborot ta’lim muhitini tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu sababdan professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida mediasavodxonlik, mustaqil faoliyat, elektron ta’lim sifatini oshirish orqali kadrlarni tayyorlash muhimdir. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning axborot texnologiyalari tizimini shakllantirib, ularni yangi talablar asosida yanada takomillashtirib borishga erishish lozim. Jahonda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o‘quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyatga tatbiq etildi, umumiy o’rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni o‘zlashtirilgan axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandard vaziyatlarida qo’llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. Maktab ta’limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta’lim resurslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta’minlash, mustaqil ta’limini amalga oshirish



va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'limtarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rmini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan.

## MUHOKAMA

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi.

Nodavlat ta'lif muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lif tashkilotlariga litsenziya Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan beriladigan bo'ldi. Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta'lif sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

## XULOSA

Ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Hususan, O'z bekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nlishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lif ni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nlishlarini aks ettiradi. Shuningdek, o'quvchilar turli ta'lif tizimi turlaridan foydalanishlari mumkin. Dasturiy yaklashtirish. Finlandiyada darsliklar va o'qitish metodiikalari hamkorlik asosida ishlab chiqiladi. Darsliklar o'quvchilarning amaliyotini oshirish va ta'lifda qiziqarli bo'lish uchun zamonaviy dizayn qilingan. O'qituvchilarning professionalizmi: Finlandiya o'qituvchilari yuqori malakali mutaxassis bo'lib, ularga qulay shart-sharoit yaratib beriladi. O'qituvchilarning professional rivojlanishi uchun xususiy ta'lif markazlari va kurslar mavjud. Minimal testlar va baholash. Finlandiyada test va baholash jarayonlari kamroq qo'llaniladi. O'quvchilarining rivojlanishini baholash uchun proyektlar va portfoliolardan foydalaniladi. Qisqa dars va ko'p ta'lif mashg'ulotlari. Finlandiya ta'lif tizimida o'quv

va darslar qisqa bo'lib, mashg'ulotlarning ko'p va qiziq bo'lishiga e'tibor qilinadi. Bu usul o'quvchilarga faol ishtirok etish va o'rghanish imkoniyatini yaratadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Boybekova G.D., Xoliqova G.T., Magzumova G. Pedagogichesoe gh mosterstvao. Uchebnoe posobiya. T.: 2002 - 63 s.
- 2.Muslimov N.A. Kasb talimi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya.-T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
- 3.Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. - 84 b.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [tdpu-INTERNET.Ped](http://tdpu-INTERNET.Ped)